



## YOSHLARNING IJTIMOY FAOLLI GI VA IJTIMOY MA'SULIYATINI SHAKLLANTIRISH PSIXOLOGIYASI

**Xudayberganov Azizbek Obidjonovich**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

1-kurs mustaqil izlanuvchi

[xazizbek275@gmail.com](mailto:xazizbek275@gmail.com)

orcid.0009-0004-1593-4989

+99893-759-76-67

**Annotatsiya:** So'nggi yillarda inson erkinligi va uning faolligi demokratik jamiyat qurishda muhim vositalardan biri sifatida e'tirof qilina boshlandi. Yoshlarning ijtimoiy faolligi masalasi jamiyatning barqaror rivojlanishida, yetuk fuqarolik pozitsiyalarini shakllantirishda shuningdek, fuqarolar o'rtasida birdamlik va hamjihatlikni kuchaytirishda mustahkam o'rin egallaydi. Ushbu mavzuning dolzarbligi shundaki, psixologik yondashuv orqali yoshlarning ijtimoiy faolligini kuchaytirish va ma'suliyatini oshirish jamiyatning har tomonlama rivojlanishi, xavfsizligi va barqarorligini ta'minlashi bilan muhimdir.

**Kalit so'zlar:** mas'uliyat, ijtimoiy mas'uliyat, ijtimoiy faollik, refleksiv yondashuv.

**Аннотация:** В последние годы свобода человека и его активность стали признаваться одним из важных инструментов построения демократического общества. Вопрос социальной активности молодежи занимает прочное место в устойчивом развитии общества, формировании зрелых гражданских позиций, а также в укреплении солидарности и сплоченности между гражданами. Актуальность данной темы заключается в том, что усиление социальной активности и повышение ответственности молодежи посредством психологического подхода важно для обеспечения всестороннего развития, безопасности и стабильности общества.

**Ключевые слова:** ответственность, социальная ответственность, социальный активизм, рефлексив ёндашув.

**Abstract:** In recent years, human freedom and its activity have begun to be recognized as one of the important tools in building a democratic society. The issue of youth social activity occupies a firm place in the sustainable development of society, the formation of mature civic positions, as well as in strengthening solidarity and harmony among citizens. The relevance of this topic lies in the fact that strengthening the social activity and increasing the responsibility of young people through a psychological approach is important for ensuring the comprehensive development, security, and stability of society.

**Keywords:** responsibility, social responsibility, social activism, reflexive approach.





**Kirish:** Bugungi rivojlangan bir davrda yoshlarning ijtimoiy jihatdan faolligi va mas'uliyatni shakllantirish dolzarbligi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yurtimizning kelajagi va taraqqiyotining zamonaviy modeli demokratik davlat munosabatlarini shakllantirish, bozor iqtisodiyotiga o'tishda strategik vazifalarni hal qilish kerak ekanligini nazarda tutadi. Ushbu masalalarni to'g'ri yondashuv asosida zamonaviy har tamonlama rivojlangan, zimmasidagi vazifalariga ijodiy yondasha oladigan, mustaqil va malakali ravishda maqbul qarorlarni qabul qiluvchi, ularni amalga oshirish va bular uchun mas'uliyatni his etish qobiliyatiga ega bo'lgan mutaxassislar zarurdir.

**Adabiyotlar tahlili:** L.S.Vygotskiy ijtimoiy muhitning shaxs rivojlanishidagi yetakchi rolini ta'kidlab, shaxsning ijtimoiy faolligi ijtimoiy tajriba va muloqot jarayonida shakllanishini asoslab bergan. Uning nazariyasiga ko'ra, yoshlar faoliyati ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'sirda rivojlanib, ijtimoiy me'yor va qadriyatlar ichki ongga singdiriladi. Bu jarayon ijtimoiy mas'uliyatning psixologik poydevorini tashkil etadi.

**Ijtimoiy mas'uliyat** - bu shaxslar, tashkilotlar yoki davlatlarning axloqiy tamoyili va majburiyati, balki xarakterning o'ziga xos xususiyati, insonning ichki tuzilishi sifatida ham namoyon bo'ladi. Shu munosabat bilan ayniqsa bugungi kunda yosh mutaxassislarni tayyorlashda ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish ulkan ahamiyatga ega. Shaxsning erkinligi va mas'uliyati ijtimoiy faoliyatning muhim omillaridan biri bo'lib, uning dinamikasi, yo'nalishi va ijtimoiy ahamiyatini belgilaydi. Shaxs erkinligiga muqarrar ravishda uning ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirish orqali erishish maqsadga muvofiqdir.

E. Eriksonning psixosotsial rivojlanish nazariyasida yoshlik davri shaxsiy identifikatsiya va ijtimoiy rolni anglash bosqichi sifatida tavsiflanadi. Erikson yoshlarning jamiyatdagi o'z o'rnini anglash jarayoni ijtimoiy mas'uliyat va fuqarolik pozitsiyasining shakllanishiga bevosita ta'sir qilishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, ijtimoiy faoliyatga jalb etilgan yoshlar ijtimoiy mas'uliyatni tezroq o'zlashtiradi.

Mahalliy olimlar tadqiqotlarida ham yoshlarda ijtimoiy faollik masalasi muhim yo'nalish sifatida qaraladi. F. Abdurahmonov, Sh. Mardonov va boshqa tadqiqotchilar yoshlar psixologiyasida ijtimoiy faollikning shakllanishi ta'lim-tarbiya jarayoni bilan uzviy bog'liqligini ta'kidlaydilar. Ularning ishlarida jamoaviy faoliyat, volontyorlik va ijtimoiy loyihalarning yoshlar mas'uliyatini oshirishdagi ahamiyati ko'rsatib berilgan.

Shaxsning o'z xatti-harakatlari, qarorlaridan jamiyat va davlat manfaatlarini yo'lida foydalanish mas'uliyat hisoblanadi. Mazkur hissiy-irodaviy holat insonlar tomonidan o'zlashtiriluvchi bir qancha turlari mavjud bo'lib, ulardan biri ijtimoiy mas'uliyat bo'lib, zamonaviy tadqiqotlarda ijtimoiy faollik va ijtimoiy mas'uliyat fuqarolik ongining muhim ko'rsatkichlari sifatida talqin qilinadi. Xorijiy tadqiqotlarda yoshlarning ijtimoiy tashabbuslarda ishtiroki ularning empatiya, liderlik va mas'uliyat kabi shaxsiy sifatlarini rivojlantirishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.



Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, yoshlarda ijtimoiy faollik va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish ko'p omilli va murakkab jarayon bo'lib, u psixologik rivojlanish, ijtimoiy muhit va ta'limiy ta'sirlar uyg'unligida amalga oshadi. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda ushbu jarayonning psixologik mexanizmlarini emperik jihatdan chuqur o'rganish zarurligi saqlanib qolinmoqda.

**Faollik** - shaxsning ichki ehtiyojlari, motivlari va maqsadlari asosida tashqi muhit bilan faol o'zaro ta'sirga kirishish, o'zining shaxsiy imkoniyatlarini amalga oshirishga bo'lgan ichki energiya va harakatlanish darajasi hisoblanadi.

O'z navbatida **ijtimoiy faollik** - shaxsning jamiyat hayotida ishtirok etishi orqali ijtimoiy munosabatlar jarayonida o'z o'rnini bildirish, jamiyatga foydali faoliyat bilan shug'ullanishga bo'lgan psixologik tayyorligi va intilishidir.

Yoshlarda ijtimoiy jihatdan faollikni rivojlantirish jarayonida oliy ta'lim muassasalari yetakchi rol o'ynaydi. Chunki yoshlarning aksariyati oliy ta'lim dargohlarida ijtimoiy faolliklari ortadi. Talabalarning ijtimoiy faolligini ko'pincha dars jarayonida, ilmiy-tadqiqot faoliyatlarida, ijtimoiy loyihalarda, turli klublar va to'garaklarda o'z aksini topadi. O'qituvchi va murabbiylarning vazifasi-talabalarning tabiiy qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash, ularga ijtimoiy ahamiyatli faoliyatlarda ishtirok etish imkoniyatlarini yaratish va ijobiy motivatsiyani shakllantirishdan iborat. Psixologik jihatdan esa, ijtimoiy faollikni rivojlantirish uchun o'z-o'zini anglash, o'z fikrini erkin ifoda eta olish, tanqidiy fikrlash va ijtimoiy mas'uliyatni his qilish qobiliyatlari shakllantirilishi kerak. Psixologiyada ijtimoiy faollik shaxsning jamiyat hayotida faol ishtirok etish darajasi, tashabbuskorlik, mas'uliyat va ijtimoiy qadriyatlarni anglash bilan belgilanadi. L.S. Vygotskiy shaxs rivojlanishida ijtimoiy muhitning hal qiluvchi rolini ta'kidlagan bo'lsa, A.N. Leontyev faoliyat nazariyasi orqali ijtimoiy tajribaning motivatsion xususiyatlarini ochib bergan. D.B. Elkonin yosh davrlari psixologiyasida talabalik davrini shaxsning eng faol ijtimoiylashuv bosqichi sifatida ta'riflagan.

**Adabiyotlar tahlili:** L.S.Vygotskiy ijtimoiy muhitning shaxs rivojlanishidagi yetakchi rolini ta'kidlab, shaxsning ijtimoiy faolligi ijtimoiy tajriba va muloqot jarayonida shakllanishini asoslab bergan. Uning nazariyasiga ko'ra, yoshlar faoliyati ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'sirda rivojlanib, ijtimoiy me'yor va qadriyatlar ichki ongga singdiriladi. Bu jarayon ijtimoiy mas'uliyatning psixologik poydevorini tashkil etadi.

E. Eriksonning psixosotsial rivojlanish nazariyasida yoshlik davri shaxsiy identifikatsiya va ijtimoiy rolni anglash bosqichi sifatida tavsiflanadi. Erikson yoshlarning jamiyatdagi o'z o'mini anglash jarayoni ijtimoiy mas'uliyat va fuqarolik pozitsiyasining shakllanishiga bevosita ta'sir qilishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, ijtimoiy faoliyatga jalb etilgan yoshlar ijtimoiy mas'uliyatni tezroq o'zlashtiradi.

Mahalliy olimlar tadqiqotlarida ham yoshlarda ijtimoiy faollik masalasi muhim yo'nalish sifatida qaraladi. F. Abdurahmonov, Sh. Mardonov va boshqa tadqiqotchilar



yoshlar psixologiyasida ijtimoiy faollikning shakllanishi ta'lim-tarbiya jarayoni bilan uzviy bog'liqligini ta'kidlaydilar. Ularning ishlarida jamoaviy faoliyat, volontyorlik va ijtimoiy loyihalarning yoshlar mas'uliyatini oshirishdagi ahamiyati ko'rsatib berilgan.

Zamonaviy tadqiqotlarda ijtimoiy faollik va ijtimoiy mas'uliyat fuqarolik ongining muhim ko'rsatkichlari sifatida talqin qilinadi. Xorijiy tadqiqotlarda yoshlarning ijtimoiy tashabbuslarda ishtiroki ularning empatiya, liderlik va mas'uliyat kabi shaxsiy sifatlarini rivojlantirishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, yoshlarda ijtimoiy faollik va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish ko'p omilli va murakkab jarayon bo'lib, u psixologik rivojlanish, ijtimoiy muhit va ta'limiy ta'sirlar uyg'unligida amalga oshadi. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda ushbu jarayonning psixologik mexanizmlarini empirik jihatdan chuqur o'rganish zarurligi saqlanib qolinmoqda.

**Natijalar tahlili:** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ijtimoiy faollik darajasi yuqori bo'lgan yoshlar orasida ijtimoiy mas'uliyat ham nisbatan yuqori ko'rsatkichlarga ega. Xususan, jamoaviy faoliyatlarda, volontyorlik va ijtimoiy loyihalarda faol ishtirok etuvchi yoshlar jamiyat oldidagi burch va majburiyatlarini chuqurroq anglashlari aniqlandi.

Shuningdek, natijalar talabalarining o'z-o'zini anglash darajasi, tashabbuskorlik va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlari ijtimoiy mas'uliyat bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatdi. Psixologik muhit qo'llab-quvvatlovchi bo'lgan ta'lim muassasalarida yoshlarning ijtimoiy faolligi sezilarli darajada yuqori ekanligi kuzatildi. Bu esa ta'lim jarayonida motivatsion va refleksiv yondashuvlarning ahamiyatini tasdiqlaydi.

**Muhokama:** Olingan natijalar L.S. Vygotskiy, A.N. Leontyev va E. Eriksonning nazariy qarashlarini tasdiqlaydi. Ya'ni, shaxs rivojlanishida ijtimoiy muhit va faoliyat yetakchi rol o'ynaydi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, yoshlarning ijtimoiy faolligi faqat tashqi faoliyat bilan cheklanmay, balki ularning ichki motivlari, qadriyatlari va mas'uliyat hissi bilan uzviy bog'liqdir.

Ijtimoiy faol muhitda tarbiyalangan yoshlar jamiyat muammolariga befarq bo'lmaydi, o'z pozitsiyasini ongli ravishda bildiradi va o'z xatti-harakatlari oqibatlarini anglaydi. Bu holat ijtimoiy mas'uliyatning shakllanishida psixologik tayyorgarlik, identifikatsiya va ijtimoiy rolni anglash muhim ekanligini ko'rsatadi. Shu bois, yoshlar bilan ishlashda faqat tashkiliy emas, balki psixologik mexanizmlarni ham hisobga olish zarur.

**Xulosa:** Xulosa qilib aytganda, yoshlarning ijtimoiy faolligi va ijtimoiy mas'uliyatini shakllantirish jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun muhim psixologik omillardan biridir. Tadqiqot natijalari yoshlarning ijtimoiy faolligi ularning ijtimoiy mas'uliyatini oshirishga xizmat qilishini, bu jarayon esa ta'lim muassasalari, ijtimoiy muhit va psixologik yondashuvlar orqali samarali amalga oshirilishini ko'rsatdi.



Yoshlarni ijtimoiy ahamiyatga ega faoliyatlarga jalb etish, ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va fuqarolik ongini rivojlantirish orqali mas'uliyatli, faol va yetuk shaxslarni shakllantirish mumkin. Kelgusida ushbu yo'nalishda empirik tadqiqotlarni kengaytirish, ijtimoiy faollik va mas'uliyatning psixologik mexanizmlarini chuqurroq o'rganish dolzarb hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Elkonin D.B. **Yosh davrlari psixologiyasi.** – Moskva: Pedagogika, 1989.
2. Abdurahmonov F. **Yoshlar psixologiyasi.** – Toshkent: O'zbekiston, 2015.
3. Mardonov Sh. **Shaxs va ijtimoiy faollik psixologiyasi.** – Toshkent: Fan, 2018.
4. Karimova V.M. **Ijtimoiy psixologiya.** – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. **Yoshlar siyosati to'g'risidagi Qonuni.** – Toshkent, 2016.
6. Karimova N.U. *Psychological Features of Formation of Social Activity in Students.* **Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan,** 2024. (Talabalarda ijtimoiy faollikni shakllantirish psixologik xususiyatlari).